



**OLIV TA'LIM TIZIMIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI
OSHIRISH IMKONIYATLARI**

Sa'dullayeva Dilnoza Halimovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti II-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ta'lim tizimining sifatini oshirish jamiyatning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va o'quv jarayonining zamonaviy talablarga mosligini ta'minlash bilan bog'liq. Maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlashda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish, ta'lim va fan integratsiyasi, hamkorlik dasturlarini kengaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda o'rnini mustahkamlash yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, ta'lim sifati, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, pedagogik usullar, ta'lim va fan integratsiyasi, boshqaruv tizimi, xalqaro reytinglar, kadrlar tayyorlash.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, uni sifat jihatdan yangi bosqich va xalqaro ta'lim standartlari darajasiga olib chiqish, mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalari uchun har tomonlama yetuk va malakali kadrlar tayyorlash davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ko'plab farmon va qarorlari uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, uni xalqaro ta'lim standartlari darajasiga olib chiqish masalalariga qaratilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026" yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-mayda tasdiqlagan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi" to'g'risidagi PQ-4312-son Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 noyabrda qabul qilgan "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF – 5712-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda qabul qilgan "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyunda qabul qilgan PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrda qabul qilgan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-5847-son Qarori.

Ushbu davlat xujjatlarida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish amaliyoti o'rtasida uzviy aloqalarni o'rnatish, ularni integratsiyalashga erishish, ilm-fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari, xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ilg'or tajribalari asosida oliy ta'lim mazmunini qayta ishlab chiqish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, tobora rivojlanib borayotgan turli sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlash jarayonida ta'limni tashkil etishning samarali shakl, vosita va metodlaridan foydalanish dolzarb vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Talabalarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda o'quv adabiyotlarining yangi avlodi, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqishda xorijiy adabiyotlar, ularning tajribalardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish borasidagi eng muhim qadamlardan biri yangi "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) qonunning qabul qilinishi bo'ldi.

Ma'lumki, har qanday yuksak madaniyatli jamiyatda ta'lim tizimi faoliyati Konstitutsiya va tegishli me'yoriy xujjatlar, xususan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun bilan boshqariladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Konstitutsiya ham, qonun ham «ta'lim jarayonida yuzaga kelgan faqat umumiy printsip va munosabatlarni belgilaydi xolos. Qonunning boshqa qoidalarini amalga oshirish va bunda o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari manfaatini saqlash uchun alohida ta'lim standartlarini yaratish kerak bo'ldi.

"Standart" tushunchasi chet tillar lug'atida – inglizcha "*standart*" izohlanib, "norma", "namuna", "me'yor" tarzida talqin qilinadi. Binobarin, standart bu muayyan obyekt, ya'ni ta'lim jarayoniga nisbatan kompleks normalar, qoidalar, talablar belgilaydigan me'yoriy xujjatdir. "Standartlashtirish" atamasi ostida esa barcha manfaatdor tomonlar foydasiga va ular ishtirokida ta'lim sohasidagi faoliyatni tartibga solish maqsadida ma'lum normalar, qoida va me'yorlarni etalon sifatida belgilash va qo'llash tushuniladi. Ma'lumki, ta'lim jarayonida ta'lim muassasasi, o'quvchi, ota-ona, davlat va umuman jamiyat manfaati to'qnash keladi.

Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra barcha ishtirokchilari tomonidan ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar va jamiyatda uning tarixiy taraqqiyotining hozirgi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bosqichida real va obyektiv mavjud bo'lgan ushbu asoslarni joriy etishga doir metodologik mo'ljallar nuqtai nazaridan tushuniladigan ta'lim jarayonini tartibga solish va kutilayotgan natijaga erishish quroli bo'lib xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, ta'lim standarti ta'lim olganlikning davlat me'yori (*o'lchovi, etaloni*) sifatida qaraladigan ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy jihatlarini tashkil etuvchi majmua tushuniladi.

Binobarin, standartda qayd etilgan ta'lim normasi o'zida ijtimoiy idealni aks ettiradi, shuningdek, ta'lim oluvchining real shaxsiy imkoniyatlarigina emas, balki ana shu idealni egallashga doir ta'lim tizimining ham imkoniyatlarini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq hozirgi paytda ta'limni standartlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish deb tushuniladigan standartlashtirish har bir fuqaroning yuqori sifatli ma'lumot olishga bo'lgan konstitutsion huquqini amalga oshirish va shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Ta'kidlash lozimki, ta'limni standartlashtirish, ya'ni ta'lim jarayonini tartibga solish harakati ilgari ham amalga oshirilgan. Bunga o'quv dasturlari va rejalarini tuzish, shuningdek, ta'limning muayyan darajasini qaror toptirish orqali erishilgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bo'g'inlarida uni tashkil etishdagi yangi ko'rinishlarning yuzaga kelishini nazarda tutgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun amal qilayotgan hozirgi sharoitda faqat ta'lim mazmunini emas, balki ta'lim jarayonining boshqa qismlarini ham standartlashtirish ehtiyoji kutilmoqda. Aynan ta'lim jarayonining quyidagi tarkibiy qismlari:

1. Ta'lim strukturasi.
2. O'quv yuklamasining xajmi va ta'lim oluvchilar tayyorgarligi darajasi.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning optimal usullari.
4. Ta'lim natijalarini o'lchash va talqin qilishning shakl va metodlari.
5. Pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malaka darajasiga nisbatan yagona me'yorlarni belgilash.
6. O'quv muassasalarini akkreditatsiya va attestatsiya qilish.
7. Ilmiy-tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish va h.k. [5-7]

Ta'limning yuqorida sanab o'tilgan va standartlashtirishga jalb etiladigan asosiy obyektlarining dalolat berishicha, DTS mohiyatan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning muayyan qismini izohlovchi asosiy me'yoriy xujjat hisoblanadi. O'z navbatida, DTS boshqa me'yoriy xujjatlarni, jumladan o'quv rejalarini, o'quv dasturlari, o'quv muassasalarini akkreditatsiya qilish, kadrlar attestatsiyasini o'tkazish haqidagi Nizomlarni yaratish uchun ham asos bo'ladi.

DTSning joriy etilishi o'quv jarayonini qat'iy shablonga buysundirish kerak degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, standartning «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga singdirilgan halqchillik g'oyasi pedagogik ijodkorlikka, majburiy asosi, ya'ni, invariant qismi





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

atrofida turli tarkiblar, funktsional, variativ dasturlar, ta'limning rang-barang texnologiyalari, darsliklar va qo'llanmalarini yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 132 b. .
2. 49. Yo'ldoshev J.G., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). – T., 2008. – 172 b.
3. 50. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. –T.: Tib-kitob, 2009.
4. 51. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: Lider press, 2009. – 104 b.

